



SOVET ISCHI-DEHQON MILITSIYASI FAOLIYATINING E'TIROF ETILISHI

Ro'ziboyev Faxriddin Sohijjon o'g'li

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

e-mail: faxriddinroziboyev62@gmail.com

tel: +998939490353

Annotatsiya. Ushbu tezisda Sovet hukumati tomonidan tashkil etilgan ishchi-dehqon militsiyasining 5 yillik yubileyi doirasida militsiya xodimlarining mehnatlarini e'tirof etilishi yoritilgan. Ularning mehnatiga holisona baho berilgan.

Kalit so'zlar: ishchi-dehqon, militsiya, komissiya, yubiley, sovet, qidiruv.

Abstract: This thesis highlights the recognition of the work of police officers as part of the 5th anniversary of the Workers' and Peasants' Militia, established by the Soviet government. Their work is given an objective assessment.


Key words: worker-peasant, police, commission, anniversary, Soviet, search.

Аннотация. В данной диссертации подчеркивается признание деятельности сотрудников полиции в рамках празднования 5-й годовщины Рабоче-крестьянской милиции, созданной Советским правительством. Их работа была объективно оценена.

Ключевые слова: рабоче-крестьянский, полиция, комиссия, годовщина, советский, обыск.

Ma'lumki sovetlar hokimiyat tepasiga kelganidan so'ng o'z hokimiyatlarini mustahkamlash harakatini boshlab yuborishdi. O'z o'tmishdoshi podsho Rossiyasi kabi sovetlar ham hokimiyatni mustahkamlashda harbiy kuchga, nazorat organlarining yordamiga tayandi. 1917-yil 28-oktyabr kuni Oktyabr to'ntarishi g'alaba qozongan kundan 3 kun o'tib, sovet hukumatining vakolatiga ko'ra, RSFSR Ichki ishlar xalq komissarligi tomonidan qabul qilingan "Ishchi militsiyasi to'g'risida"gi qaror yangi turdagi militsiya tashkil etilganligi haqidagi birinchi ko'rsatma bo'lgan edi [1, 19].

1918-yilda esa, ishchi-dehqon militsiyasi tashkil etish ishlari boshlandi. 29-yanvar kuniyoq Turkiston Xalq Komissarlari Sovetining yig'ilishida ischi-dehqon





militsiyasini tashkil etish bo'yicha buyruq e'lon qilindi. Shu kundan e'tiboran hududlarda militsiya bo'limlari tashkil etilib zarur xodimlar bilan to'ldirila boshlandi[2, 7]. Shu yilning oxiriga kelib, ya'ni 13-dekabrda "Turkiston ishchi-dehqon militsiyasi Nizomi qabul qilindi"[3, 36]. Bu militsiyaning huquqiy jihatdan har tomonlama mustahkamlanganligini anglatar edi.

Militsiya xizmati xodimlar borini berib ishlasada, o'z ishlaridan moddiy va ma'naviy manfaatdorlik yetishmagan. Bu holat ishchi-dehqon militsiyasi tashkil etilganidan to 5 yil o'tguncha davom etdi. 1923-yil 29-yanvar kuni Turkiston ASSR ishchi-dehqon militsiyasi tashkil topganiga besh yil to'lgan kun deb e'lon qilindi. "Qizil politsiyachilarning inqilobiy tartibni qo'riqlash borasidagi, bosmachilar harakatini bartaraf etishdagi va soliqlar yig'ish va o'z burchlari bilan bog'liq bo'lgan boshqa xizmatlarni o'z hayotlarini xavf ostiga qo'ygan holda, katta mas'uliyat bilan bartaraf etishdagi xizmatlarini e'tiborga olib, Turkiy respublika militsiyasi o'tgan faoliyati davomida katta inqiroz davrida bo'lganligi uchun Turkiston Mudofaa qo'mitasi tomonidan 5 yillik yubiley katta ma'naviy ahamiyatga ega bo'lishi kerakligi ta'kidlandi. Tantanani o'tkazishda 3ta vazifa belgilandi:

- 1) Bu kunda o'z xizmat burchini ado etishda alohida ajralib turgan, ichki ishlar organlarida bir necha yil sharaflil va vijdonan xizmat qilgan maxsus xizmat xodimlariga sovg'alar berish;
- 2) Ichki ishlar xodimlariga sovg'alar sotib olish uchun mahalliy byudjetdan mablag' ajratish;
- 3) bayramni nishonlashni tashkil etishda barchaning faol ishtirok etishi, bunga butun Sovet apparatining alohida e'tiborini qaratish[4, 2].

Militsiya xizmatiga ishga kirish aynan shu yillar kamayib ketganligi bois 5 yillik yubileyini katta tantana va ko'tarinki ruhda o'tkazish reja qilingan edi. Xususan, Ichki ishlar organlarining besh yilligini nishonlashga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish uchun markaziy viloyat va tuman komissiyalari tuziladi. Komissiya militsiya bo'limi qoshida tashkil etilib, unga komissar, militsiya bo'limi, militsiya xizmati bo'limi boshlig'i, ta'minot boshlig'i, Turkiston ASSR militsiyasi boshlig'idan iborat etib tuziladi. Bu komissiya Markaziy komissiya edi. Shuningdek, tegishli ichki ishlar bo'limlari huzurida ichki ishlar bo'limi boshlig'i, ta'minot boshlig'i, viloyat ijroiya qo'mitasi va siyosiy ta'lim bo'limi vakillaridan iborat viloyat ijroiya qo'mitasi bo'lim mudiri raislik qiladigan hududiy komissiyalar tuziladi. Okrug komissiyalari hududiy komissiyalar kabi ichki ishlar bo'limlarining tegishli vakillaridan, siyosiy bo'linmaning ichki ishlar bo'limi





boshlig'idan, militsiya xizmati boshlig'idan hamda ijroiya qo'mitasi bo'limi raisligida ijroiya qo'mitasi va siyosiy ta'lim vakillaridan iborat etib tuzilgan. Komissiyaga Rossiya kommunistik partiyalari viloyat va okrug qo'mitalari vakillari ham taklif etilgan.

Markaziy komissiyaning vazifalariga quyidagilar kirgan:

- ashkilot va barcha hududiy komissiyalar ishiga umumiy rahbarlik qilish;
- tegishli buyruqlar, sirkulyarlar, ko'rsatmalar, tezislar va boshqalarni ishlab chiqish;
- bayram kunlariga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish bo'yicha umumiy nazorat o'tkazish.

Viloyat va tuman komissiyalarining vazifalariga quyidagilar kirgan:

- mahalliy sharoitlarni hisobga olgan holda ko'rsatmalarning aniqlanishi;
- bayram kunlarini tayyorlash va o'tkazish;
- mahalliy sharoitni hisobga olgan holda marosim xarajatlarini hisoblab chiqish;
- bayram kunini tayyorlash va o'tkazish;
- besh yillik yubileyi nishonlash uchun tayyorlangan hamma narsadan foydalangan holda maydonlarni, ko'chalarni bezash va zarur tadbirlarni tayyorlash;
- maktablar va boshqa jamoat tashkilotlari boshqaruvi qismlarida targ'ibot va tashviqot ishlarini boshqarish;
- tegishli targ'ibot-tashviqot adabiyotlarini tarqatish va nashr etish: varaqalar, gazeta va jurnallarda tantanali majburiyatlar matni va tashakkurnomalar matnining maxsus sahifalari, dasht gazetalari shiorlari, plakatlari, shuningdek, matbuot uchun chop etishdan oldin targ'ibot kampaniyalarini o'tkazishdan iborat edi. Komissiya ishchi-dehqon militsiyasining besh yilligini nishonlash tugaguniga qadar mavjud bo'lishi hamda komissiyalar bayramga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish bilan bog'liq barcha xarajatlar smetasini ishlab chiqishi va yuqoridagi barcha xarajatlarni mahalliy mablag'lar hisobidan qoplash maqsadida ushbu masalani viloyat ijroiya qo'mitasi majlisiga kiritishi belgilandi[4, 5].

Bundan tashqari RSFSR milliy respublikalari ishchi-dehqon militsiyasi tarkibidagi jinoyat qidiruv bo'limi xodimlariga fosh qilingan jinoyatlari uchun mukofotlar berish bo'yicha qaror qabul qilindi. Bu ham militsiya idoralarining e'tirof etilishi edi[5, 4].

Xullas, ishchi-dehqon militsiyasi tashkil etilganidan so'ng 5 yil davomida deyarli isloh qilinmadi. Xodimlarning moddiy manfaatlari qoniqtirilmadi. O'tkazilgan 5 yillik yubiley tantanalari birinchi bor militsiya xodimlarining





hukumat tomonidan e'tirof etilishi bo'ldi. Ungacha xodimlar belgilanmagan ish soati ko'pligidan, maosh esa kamligidan, yashash uchun ijara xonadonlari yetishmasligidan aziyat chekishdi. Shuningdek, boshqarmalar, bo'limlardagi ish offislarida ish qurollari ham yetishmagan. Bu esa ish ko'lamining

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Джалилов Т. Верные отчизне (1917-1924 гг.). – Т.: Узбекистан. 1968. – 96 с.
2. Джалилов Т.А. На страже народных интересов/Т.А.Джалилов. – Ташкент, 1963. – 79 с.
3. Джалилов Т. Из истории рабоче-дехканской милиции в Узбекистане . –Т., 1969. – 87 с.
4. Farg'ona viloyat davlat arxivi, 328-fond, 1-ro'yxat, 20-ish.
5. Farg'ona viloyat davlat arxivi, 328-fond, 1-ro'yxat, 78-ish.

